



# **GSTC Destinasiya Mezonlari**

**Versiya 2.0**

**2019 yil 6 dekabr**

**Samaradorlik ko'rsatkichlari va BRM bilan**

GSTC xalqaro standartlari bo'yicha ishchi guruhi tomonidan rasman ma'qullangan va GSTC Direktorlar kengashi tomonidan GSTC Nizomi shartlariga muvofiq GSTC Destinasiyalar uchun mezonlarining birinchi nashri sifatida rasman qabul qilingan.

©Xalqaro Barqaror Turizm Kengashi, 2019 y., Barcha huquqlar himoyalangan  
Xalqaro Barqaror Turizm Kengashi  
PO Box 96503 - #51887  
Vashington, OK 20090 AQSH  
[info@gstcouncil.org](mailto:info@gstcouncil.org)  
[www.gstcouncil.org](http://www.gstcouncil.org)

## Preambula

Xalqaro barqaror turizm kengashi (GSTC) mezonlari barqaror turizm haqida umumiy tushunchalar bilan ta'minlash maqsadida yaratilgan. Destinasiyalar uchun mezonlar norasmiy ravishda "GSTC-D" nomi bilan ham tanilgan - har qanday turistik yo'nalish erishishga intilishi kerak bo'lgan minimal mezonlar to'plamidir. Mezonlar to'rtta asosiy mavzular doirasida shakllantirilgan: barqaror boshqaruv; ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar; madaniy ta'sirlar; va atrof-muhitga ta'sirlar. Ushbu mezonlar butun turizm sektorida qo'llanishi mumkin.

GSTC mezonlari ISEAL Alyansi-barcha sohalarda barqarorlik standartlarini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro me'yorlarga asosan yo'l-yo'riq ko'rsatishni tan olgan Standartlarni o'rnatish kodeksiga rioya qilishga intilib ishlab chiqilgan va qayta ko'rib chiqilgan. GSTC-D ning oxirgi marta qayta ko'rib chiqilishi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvning ikki bosqichiga asoslangan holda 2019 yilda bo'lib o'tgan. Kelajakdagi rejalar va qayta ko'rib chiqish mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha ma'lumotlar bilan [www.gstccouncil.org](http://www.gstccouncil.org) saytida tanishish mumkin.

## Mezonlar nima uchun ishlab chiqilgan?

- Destinasiya mezonlari quyidagi hollarda ishlatilishi mumkin:
- Barqarorlikni sertifikatsiyalash uchun asos bo'lib xizmat qilish;
- Yanada barqaror bo'lishni maqsad qilgan turistik yo'nalishlar uchun asosiy boshqaruv omillari sifatida xizmat qilish;
- Iste'molchilarga barqarorlikni muvaffaqiyatli joriy etgan turistik yo'nalishlarni aniqlashga yordam berish;
- Axborot vositalari uchun manzillarni tanib olish va ularning barqarorligi haqida jamoatchilikni xabardor qilish uchun umumiy belgi bo'lib xizmat qilish;
- Sertifikatlash va boshqa ixtiyoriy darajasidagi dasturlarga yordam berish maqsadida ularning standartlari keng qabul qilingan bazaga mos kelishini ta'minlash;
- Barqaror turizm talablarini rivojlantirish uchun davlat, nodavlat va xususiy sektor dasturlarini taklif qilish;
- Ta'lim va malaka oshirish muassasalari, ya'ni turizm maktablari va universitetlar uchun asosiy ko'rsatmalar bo'lib xizmat qiladi;
- Boshqalarni harakatga ilhomlantiradigan etakchilikni namoyish etish.

Mezonlar maqsadga erishishganlik yoki qanday erish kerakligini emas balki, nima qilish kerakligini ko'rsakadi. Ushbu vazifa GSTC Mezonlarining ajralmas to'ldiruvchisi bo'lgan joriy etish instrumentlari va o'quv materiallariga javob beradigan samaradorlik ko'rsatkichlari orqali erishiladi.

## Mezonlar kimlar uchun?

GSTC-D destinasiyalar uchun ishlab chiqilgan<sup>1</sup>. Mezonlar alohida bitta ob'yektga taalluqli emas, balki aniqlanishi mumkin bo'lgan nomga ega ma'lum bir joyga tegishli. Mezonlarning talabi, qaysi tashkilot

---

<sup>1</sup> Butunjahon sayyohlik tashkiloti (YuVTO) tomonidan destinatsiya quyidagicha ta'riflangan: "Ma'muriy va/yoki tahliliy chegaralari bo'lgan yoki bo'lmagan jismoniy makon, unda tashrif buyuruvchi tunashi mumkin. Bu turistik qiymat zanjiri bo'ylab mahsulot va xizmatlar, faoliyat va tajribalarning klasteri (birgalikda joylashganligi) va turizmni tahlil qilishning asosiy birligidir. Belgilangan manzil turli manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oladi va kattaroq manzillarni shakllantirish uchun tarmoqqa ulanishi mumkin

javobgar bo'lishidan yoki tegishli harakat qanday yoki kim tomonidan amalga oshirilganidan qat'iy nazar ta'riflangan shartlar ushbu manzilga tegishli bo'lishi kerak.

GSTC-D ko'lami keng va mezonlar keng doiradagi destinatsiyalarga qo'llanilishi mumkin. Ular dunyoning istalgan qismida va har qanday turdagi (masalan, shahar, qishloq, tog', qirg'oq yoki aralash) bo'lishi mumkin. Mezonlar yirik yo'nalishlarga (masalan, katta shaharlar yoki viloyatlar) va kichiklarga ham (masalan, milliy bog'lar, mahalliy jamoalar klasterlari va boshqalar) tegishli bo'lishi mumkin.

GSTC-D organga (boshqaruv) emas, balki joyga taalluqli bo'lsa-da, ko'pgina mezonlar belgilangan joy ichida barqaror turizmga muvofiqlashtirilgan yondashuv uchun mas'ul bo'lgan destinatsiya boshqaruvi tashkiloti tomonidan qabul qilinishi va qo'llanilishi mumkin. Bunday tashkilotning mavjud bo'lishi A1 mezonida ko'rsatilganidek, GSTC-D ning markaziy talabi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday tashkilot mahalliy hokimiyat yoki davlat sektori organi bo'lishi shart emas balki davlat va xususiy sektorlarning ishtirokini talab qiladi.

Ba'zi mezonlar korxonalariga tegishli. Bular yakka tartibdagi tadbirkorlik, boshqa turdagi ob'ektlar, faoliyat va majburiyat shakllari ham bo'lishi mumkin. Masalan, ular nafaqat mehmonxonalar yoki pullik attraksionlar kabi tijorat korxonalarini, balki muzeylar, festivallar, jamoat binolari va yodgorliklarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

## Samaradorlik ko'rsatkichlari va BRM

Bu erda keltirilgan samaradorlik ko'rsatkichlari mezonlarga muvofiqlikni o'lchash bo'yicha ko'rsatmalar berish uchun mo'ljallangan. Ular aniq to'plam yoki hamma omilarni o'z ichiga olishi uchun mo'ljallanmagan, balki GSTC C-D foydalanuvchilari uchun o'zlarining indikatorlar to'plamini ishlab chiqish uchun asos namuna to'plamini bo'lib xizmat qiladi. Samaradorlik ko'rsatkichlari, asosan, mezonlarga muvofiqligini baholashda manzilda tadqiq qilinishi kerak bo'lgan holatlar, omillar, dalillar va harakatlarning tavsiya etilgan ro'yxatini taqdim etadi.

Mezonlarni qo'llash belgilangan manzilga 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibiga va 17 Barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo'shishga yordam beradi. Har bir mezon 17 ta BRMdan biri yoki bir nechta bo'yicha aniqlangan bo'lib, u eng yaqin bog'liqlikda ifoda etilgan.

## Til va tarjimalar

Ingliz tili GSTC mezonlari va unga tegishli tizimning rasmiy tili hisoblanadi.

GSTC veb-saytida yoki boshqa joylarda paydo bo'lgan boshqa tillarga tarjimalar ta'lim va xabardorlik maqsadlarida qo'llanilishi kerak va texnik dasturlarda, shu jumladan sertifikatlash va akkreditatsiyada foydalanishga ruxsat berilmaydi, GSTC yoki uning vakolatli akkreditatsiya organi va standart egasi va/yoki sertifikatlashtirish organi bilan rasmiy kelishuvda alohida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Mezonlarni talqin qilish bo'yicha ingliz tilidan boshqa tilga ruxsat berilgan holda, har qanday shubha rasmiy ingliz tilidagi versiyasiga qaytariladi.

## O'tish davri

GSTC Destinatsiya Mezonlarinni v1.0 ni v2.0 bilan almashtirish uchun o'tish davrlari quyidagi funktsiyaga asoslanadi:

- Siyosiy dasturni ishlab chiqish, o'qitish va sertifikatlashdan tashqari har qanday boshqa maqsadlar uchun v2.0 dan darhol ta'sir qilish orqali foydalanish kerak
- GSTC tomonidan tan olingan manzil/hamjamiyat standartlari egalari ga 2021-yilning 31-dekabriga qadar yangi v2.0 amal qilishlari uchun ikki yillik muddatga ega bo'ladilar. Ular, o'z standartlarini ko'rsatilgan muddatdan oldinroq tahrirlarga moslashtirishlari, lekin GSTC tomonidan ushbu o'zgarishlarning muvofiqligini tekshirish uchun har qanday zarur tuzatishlar uchun vaqt ajratish uchun 2021-yil 30-iyungacha qadar kechiktirmasdan taqdim etishlari kerak.
- GSTC Destination Criteria v1.0 bo'yicha yo'nalishlarni sertifikatlash uchun akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatlashtirish idoralari 2021-yil 31-dekabrgacha qayta ko'rib chiqilgan v2.0 versiyasini sertifikatlashtirish tizimiga to'liq integratsiyalashgan bo'lishi kerak. Ularning akkreditatsiyalangan maqomi o'tish davrida saqlanib qolmasligi kerak. 2019-yil dekabridan keyin akkreditatsiyaga yangi da'vogarlar akkreditatsiya uchun ariza topshirishdan oldin GSTC-D v2.0 yoki v2.0'ga ekvivalent bo'lgan GSTC tomonidan tan olingan standartdan foydalanishlariga ishonch hosil qilishlari kerak.

### GSTC mezonlari qayta ko'rib chiqish

GSTC Destination Criteria (GSTC-D) ning ushbu talqini (v2.0) Direktorlar kengashi tomonidan 2019-yil 6-dekabrda boshlab aniq talqini sifatida rasman qabul qilingan.

GSTC Destination Criteria (v2.0) ning ushbu talqini 2013-yil dekabr oyida rasmiy nashr etilganidan beri birinchi talqin hisoblanadi.




GSTC oldingi tahrirdan keyin kamida besh yil davomida davriy tekshiruvlar o'tkazishi kerak, bu joriy talqinning dolzarbligi va rasmiy qayta ko'rib chiqish jarayoni qachon boshlanishi kerakligini aniqlash uchun kerak. Keyingi qayta ko'rib chiqish taxminan 2024-yil dekabrda bo'lishi mumkin. GSTC [www.gstcouncil.org](http://www.gstcouncil.org) saytining Mezonlar bo'limi orqali mezonlar bo'yicha izohlarni istalgan vaqtda qabul qiladi. Agar izohlar tekshiruv o'tkazish zarurligi to'g'risida dalillar keltirsa, GSTC 2024-yil dekabridan ertaroq mezonlarni qayta ko'rib chiqishni o'tkazishi mumkin.

### Mezonlarning tuzilishi

Mezonlar quyida ko'rsatilganidek, har biri ikki yoki uchta kichik bo'limlardan iborat to'rtta kichik bo'limlardan iborat. Bo'limlar va kichik bo'limlarning tartibi hech qanday tarzda har bir mavzuning nisbiy ahamiyatini ko'rsatmaydi.

<b>BO'LIM A: Barqaror boshqaruv</b> A(a) Boshqaruv tuzilmasi va asoslari A(b) Manfaatdor tomonlarning ishtiroki A(c) Bosim va o'zgarishlarni boshqarish  <b>BO'LIM B: Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik</b> B(a) Mahalliy iqtisodiy foyda keltirish B(b) Ijtimoiy farovonlik va ta'sirlar	<b>BO'LIM C: Madaniy barqarorlik</b> C(a) Madaniy merosni muhofaza qilish C(b) Madaniy obidalarni ziyorat qilish  <b>BO'LIM D: Ekologik barqarorlik</b> D(a) Tabiiy merosni asrash D(b) Resurslarni boshqarish D(c) Chiqindilarni boshqarish va yoq qilish
---	---

## GSTC DESTINASIYA MEZONLARI v2.0






Mezonlar	Indikatorlar	BRM
<b>BO'LIM A: Barqaror boshqaruv</b>		
<b><u>A(a) Boshqaruv tuzilmasi va asoslari</u></b>		
<b>A1 Destinasiyada boshqaruv mas'uliyati</b>  Destinasiyada xususiy sektor, davlat sektori va fuqarolik jamiyati ishtirokida barqaror turizmga muvofiqlashtirilgan yondashuv uchun mas'ul bo'lgan samarali tashkilot, bo'lim, guruh yoki qo'mita mavjud. Bu tashki ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va atrof-muhit masalalarini boshqarish bo'yicha mas'uliyat, nazorat va amalga oshirish qobiliyatini belgilab bergan. Ushbu jamoa yetarli darajada moliyalashtiriladi, maqsadli boshqaruvni ta'minlashda bir qator tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, yetarlicha xodimlarga (shu jumladan barqarorlik sohasida tajribaga ega bo'lgan xodimlar) bilan ishlash imkoniyatiga ega va o'z faoliyati va operatsiyalarida barqarorlik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.	a. Jamoaning tegishli tarkibi va mas'uliyatini ko'rsatadigan hujjatli dalillar b. Joriy va kelajakdagi moliyalashtirish manbalarini ko'rsatadigan moliyaviy reja va byudjet. c. Boshqa tashkilotlar bilan aloqalar va hamkorlikning dalillari. d. Tegishli tajribaga ega doimiy va shartnoma bo'yicha yollangan xodimlarning yozuvlari. e. Barqarorlik tamoyillaridan xabardorlik, ularga rioya qilish hamda operatsiyalar va shartnomalar tuzishda shaffoflikni ko'rsatadigan boshqaruv ko'rsatmalari va jarayonlari.	  
<b>A2 Destinatsiyani boshqarish strategiyasi va harakat rejasi</b>  Destinatsiyada, hamma uchun ochiq bo'lgan, o'z miqyosiga mos, manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan va barqarorlik tamoyillariga asoslangan ko'p yillik yo'nalishlarni boshqarish strategiyasi, harakat rejasi yaratilgan va amalga oshirmoqda. Strategiya turistik faoliyat turlarini aniqlash va baholashni o'z ichiga oladi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik muammolar va xavflarni baholaydi. Strategiya barqaror rivojlanish siyosati va maqsaddagi harakatlarga taalluqlidir va ularga ta'sir qiladi.	a. Joriy maqsad strategiyasi va harakatini belgilovchi nashr etilgan hujjat. b. Strategiya/reja aniq ko'rsatilgan va onlayn mavjud. c. Rejani ishlab chiqishda manfaatdor tomonlar bilan birga maslahatlashuvlar, uchrashuvlar va h.k.larning dalillari. d. Barqarorlik tamoyillariga havola, strategiya va harakatlar rejasida mavjud aktivlar, muammolar va risklarni baholash. e. Strategiya/harakat rejasida barqaror rivojlanish siyosatiga aniq havolalar (shu jumladan, BRMga intilish) va aksincha.	

<p><b>A3 Monitoring va hisobot</b></p> <p>Destinasiya ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik muammolar va turizmdan kelib chiqadigan ta'sirlarni kuzatish va ularga javob berish tizimini joriy qilmoqda. Harakatlar va natijalar muntazam ravishda nazorat qilinadi, baholanadi va jamoatchilikka hisobot beriladi. Monitoring tizimi vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.</p>	<p>a. Aniq miqdoriy ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik ko'rsatkichlar va maqsadlar aniqlangan.</p> <p>b. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha o'lchovlar qilingan, natijalar qayd etilgan va kamida bir yilda bir e'lon qilinadi.</p> <p>c. Harakatlar va natijalar monitoringi va hisobotining yozma dalillari mavjud.</p> <p>d. Monitoring tizimining oldingi sharhlari va kelgusida ko'rib chiqishlar jadvali.</p>	
<p><b><u>A(b) Manfaatdor tomonlarning ishtiroki</u></b></p>		
<p><b>A4 Korxonalar jalb etilishi va barqarorlik standartlari</b></p> <p>Destinasiya doimiy ravishda turizm bilan bog'liq tashkilotlarni barqarorlik muammolari haqida xabardor qiladi, ularning faoliyatini yanada barqaror qilishda rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Destinasiya imkon darajasida barqarorlik standartlarini qabul qilishga yordam beradi, turizm korxonalarini uchun GSTC-I tan olingan standartlar va GSTC-I akkreditatsiyalangan sertifikatlashtirish sxemalarini qo'llashga yordam beradi. Destinasiya barqarorlik sertifikatiga ega korxonalar ro'yxatini e'lon qiladi</p>	<p>a. Turizm bilan bog'liq korxonalariga barqarorlik masalalarini muntazam ravishda yetkazish dalillari (OAV, uchrashuvlar, to'g'ridan-to'g'ri aloqa va boshqalar).</p> <p>b. Turizm bilan bog'liq biznes uchun barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va maslahat - mavjud va targ'ib qilinadi.</p> <p>c. Turizm barqarorligi standartlariga muvofiq sertifikatlangan korxonalar soni va foizi (va GSTC tomonidan tan olingan/akkreditatsiya qilinganmi), kengroq targ'ibot maqsadlari bilan.</p> <p>d. Sertifikatlash sxemalarini ilgari surishning dalillari.</p> <p>e. Turizm bilan bog'liq sertifikatlangan korxonalar ro'yxati, yangilanib turiladi.</p>	 
<p><b>A5 Mahalliy aholini jalb etish va fikr-mulohazalari</b></p> <p>Destinasiya barqaror maqsadli rejalashtirish va boshqarishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlaydi va rag'batlantiradi. Mahalliy hamjamiyatlarning turizm barqarorligi va destinatsiyalarni boshqarish borasidagi intilishlari, tashvishlari va qoniqishlari muntazam ravishda monitoring qilinadi, jamoatchilikka hisobot beriladi va kamchiliklarga nisbatan chora-tadbirlar ko'riladi. Destinasiyada barqaror turizm imkoniyatlari va muammolari haqida mahalliy tushunishni kuchaytirish va jamoalarning javob berish qobiliyatini oshirish tizimi mavjud.</p>	<p>a. Belgilangan joylarni rejalashtirish/boshqaruvda jamoatchilik ishtirokini osonlashtirish va rag'batlantirishning dalillari.</p> <p>b. Bunday ishtirok etishning turi va darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar.</p> <p>c. Mahalliy aholini so'rovnomalari va turistik masalalarni qamrab oluvchi boshqa tizimli qayta aloqa mexanizmlari.</p> <p>d. Aholining fikr-mulohazalariga javoban ko'rilgan chora-tadbirlarning dalillari.</p> <p>e. Mahalliy aholi uchun turizm bo'yicha ma'lumot, ta'lim va o'qitish dasturi.</p>	 






<p><b>A6 Sayyohlarni jalb qilish va ularning fikr-mulohazalari</b></p> <p>Destinasiyada tashrif buyuruvchilarning belgilangan joy tajribasi sifati va barqarorligidan qoniqishini kuzatish va ommaga hisobot berish, kerak bo'lganda javob choralari ko'rish tizimi mavjud. Tashrif buyuruvchilarga belgilangan manzildagi barqarorlik muammolari va ularni hal qilishda ular qanday rol o'ynashi mumkinligi haqida ma'lumot beriladi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>a. Tashrif buyurganlarni so'rovlari (va boshqa qayta aloqa mexanizmlari) - amalga oshirildi va xabar qilindi.</li> <li>b. So'rovlar va fikr-mulohazalar barqarorlik muammolariga tashrif buyuruvchilarning munosabatini o'z ichiga oladi.</li> <li>c. Tashrifchilarning so'rovi / fikr-mulohazalari natijalariga javoban qilingan harakatlarning dalillari.</li> <li>d. Barqarorlik masalalari va ularga qanday javob berishni o'z ichiga olgan tashrif buyuruvchilar haqidagi ma'lumotlarga misollar.</li> </ul>	 
<p><b>A7 Rag'batlantirish va ma'lumot</b></p> <p>Destinasiya haqidagi reklama va tashrif buyuruvchilar haqidagi ma'lumot uning mahsulotlari, xizmatlari va barqarorlik da'volariga nisbatan to'g'ri. Marketing xabarlar va boshqa xabarlar maqsadning qadriyatlarini va barqarorlikka yondashuvini aks ettiradi va mahalliy hamjamiyatlarga, tabiiy va madaniy boyliklarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>a. Tegishli tarkibga ega joriy axborot va reklama materiallari.</li> <li>b. Belgilangan hududni reklama qilish va ma'lumotlarning to'g'riligi ishonchligini tekshirish jarayoni mavjud.</li> <li>c. Aloqa mazmuni va ma'lumotlarni yetkazib berish bo'yicha mahalliy jamiyat va atrof-muhit, madaniyat organlari bilan maslahatlashuvlar dalillari.</li> </ul>	 
<p><b><u>A (c) Bosim va o'zgarishlarni boshqarish</u></b></p>		
<p><b>A8 Tashrif buyuruvchilar hajmi va faoliyatini boshqarish</b></p> <p>Destinasiyada tashrif buyuruvchilarni boshqarish tizimi mavjud bo'lib, u muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi. Mahalliy iqtisodiyot, jamiyat, madaniy meros va atrof-muhit ehtiyojlarini muvozanatlash uchun tashrif buyuruvchilarning hajmi va faoliyatini nazorat qilinadi, boshqariladi, shuningdek, ularni ma'lum vaqtlarda va ma'lum joylarda kerak bo'lganda kamaytirish yoki ko'paytirish uchun choralar ko'riladi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>a. Destinatsiyani boshqarish strategiyasi va harakatlar rejasi tashriflarning mavsumiylik va tarqalishi muammolarini echishga qaratilgan.</li> <li>b. Yil davomida tashrif buyuruvchilar sonining o'zgarishi kuzatilib boriladi, shu jumladan eng ko'p tashrif buyuriladigan joylarda ham.</li> <li>c. Tashrifchilar soni va faoliyatining ta'siri kuzatish hamda jamoatchilik va manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari orqali aniqlanadi.</li> <li>d. Tashrif buyuruvchilar oqimi va ta'sirini boshqarish uchun qilinadigan harakatlar.</li> <li>e. Marketing strategiyasi va maqsadli bozorlarni tanlash tashrif tartibi, faoliyatning ta'siri va maqsadli ehtiyojlarni inobatga oladi.</li> </ul>	 



<p><b>A9 Rejalashtirish qoidalari va rivojlanish nazorati</b></p> <p>Destinasiyada rivojlanishning joylashuvi va tabiatini nazorat qiluvchi, atrof-muhitga, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy ta'sirni baholashni talab qiluvchi va erdan barqaror foydalanish, loyihalash, qurish va buzishni o'z ichiga olgan rejalashtirish ko'rsatmalari, qoidalari va/yoki siyosat dasturlari mavjud. Qoidalar, shuningdek, turistik maqsadlar uchun mulkni ijaraga berish va imtiyozlar kabi operatsiyalarga ham tegishli. Yo'riqnomalar, qoidalar va siyosiy dasturlar jamoatchilik ishtirokida yaratilgan bo'lib, ular keng ommaga yetkaziladi va amalga oshiriladi.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Rivojlanishni nazorat qiluvchi maxsus siyosat dasturlari/qoidalar/ yo'riqnomalar – hujjatlashtirilgan, sarlavha va sana bo'yicha aniqlangan.</li> <li>Destinasiyada atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy ta'sirlarni baholash bo'yicha o'z ichiga olgan talablar uzoq muddatli muammolarni hal qilish uchun etarli miqyosda belgilangan.</li> <li>Turizm uchun mulkni ijaraga berish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha maxsus qoidalar, ularning qo'llanilishi va bajarilishini tasdiqlovchi dalillar.</li> <li>Siyosiy dasturlar/qoidalar/yo'riqnomalarni ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokining dalillari.</li> <li>Mahalliy aholi yoki kichik etnik guruhlar hududlarida turizmni rivojlantirish taklif etilganda yoki amalga oshirilganda ular bilan maslahatlashuvlar hamda roziliklari.</li> <li>Rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlarida siyosat/qoidalar/yo'riqnomalar bilan bog'liq va bajarilishini tasdiqlovchi dalillar.</li> </ol>	 
<p><b>A10 Iqlim o'zgarishiga moslashish</b></p> <p>Destinasiya iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarni aniqlaydi. Iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyalari turizm ob'ektlarini joylashtirish, loyihalash, rivojlantirish va boshqarish uchun amalga oshiriladi. Prognoz qilinadigan iqlim o'zgarishi, ular bilan bog'liq xavflar va kelajakdagi sharoitlar haqida ma'lumot aholi, biznes va tashrif buyuruvchilar uchun taqdim etiladi.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Destinatsiyani boshqarish strategiyasi va harakat rejasi iqlim muammolarini aniqlaydi va hal qiladi.</li> <li>Turizmni rivojlantirish va faoliyatni tartibga solish, ko'rsatmalar iqlim o'zgarishi oqibatlarini hisobga oladi.</li> <li>Joriy va kelajakdagi xavflarni qamrab oluvchi iqlim xavfini baholash - amalga oshirildi va ommaga taqdim etildi.</li> <li>Mahalliy ekotizimlarning iqlim o'zgarishiga moslashuviga ta'siri va hissasini hisobga olish dalillari.</li> <li>Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar jamoatchilikka taqdim etilgan.</li> </ol>	









<p><b>A11 Xavf va inqirozni boshqarish</b></p> <p>Destinasiyada xavfni kamaytirish, inqirozni boshqarish va favqulodda vaziyatlarga javob berish rejasi mavjud bo'lib, u belgilangan hududga mos keladi. Asosiy elementlar haqida ma'lumot aholi, tashrif buyuruvchilar va korxonalariga yetkaziladi. Rejani amalga oshirish uchun tartib va manbalar belgilangan va u muntazam ravishda yangilanib turadi.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Xavfni kamaytirish, inqirozni boshqarish va maqsadli turizm uchun favqulodda choralar rejasi hujjatlashtirilgan.</li> <li>Rejada tabiiy ofatlar, terrorizm, sog'liqni saqlash, resurslarning kamayishi va hududga mos keladigan boshqa xavflarni o'z ichiga olgan keng doiradagi xavflarning mavjudligi kiritilgan.</li> <li>Favqulodda vaziyat paytida va undan keyin foydalanish uchun aniqlangan aloqa tartiblari.</li> <li>Xatarlar va inqirozlarni boshqarish bo'yicha ma'lumot va treninglarni mahalliy aholiga etkazib berish dasturi.</li> </ol>	 
<p><b>BO'LIM B: Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik</b></p>		
<p><b><u>B(a) Mahalliy iqtisodiy foyda keltirish</u></b></p>		
<p><b>B1 Turizmning iqtisodiy ulushini o'lchash</b></p> <p>Turizmning destinasiya iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita iqtisodiy hissasi monitoringi olib boriladi va mahalliy aholiga hisobot berib boriladi. Tegishli o'lchov vositalariga tashrif buyuruvchilar soni, tashrif buyuruvchilarning yordami, bandlik va investitsiyalar hamda iqtisodiy foyda taqsimoti kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi mumkin.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish dasturi.</li> <li>Destinasiyada turizmning bevosita va bilvosita iqtisodiy hissasi bo'yicha yillik hisobotlar.</li> <li>Iqtisodiy ta'sirning bir qator ko'rsatkichlarini qamrab oluvchi ma'lumotlar (masalan: hajm, xarajatlar, bandlik, investitsiyalar va iqtisodiy foydaning maqsadli tarqalishi).</li> </ol>	  

<p><b>B2 Munosib ish va karyera o'sish imkoniyati</b></p> <p>Destinasiya mansabli o'sish va turizm bo'yicha malaka oshirishlarni rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Destinasiyadagi turistik tadbirkorlik yordamida ish bilan ta'minlash, o'qitish va malaka oshirish, kasalxonada ishlash va barcha uchun yashash muhitini ta'minlashi mumkin.</p>	<p>a. Mahalliy imkoniyatlar darajasida tegishli malaka oshirish dasturlari/kurslarini ta'minlash.</p> <p>b. Sayyohlik korxonalarining munosib ish/mansab imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari to'g'risidagi bayonotlari.</p> <p>c. Mahalliy aholi, jumladan, ayollar, yoshlar, kichik jamoalar va nogironlar uchun ta'lim va ishga joylashish imkoniyatlari.</p> <p>d. Mehnat sharoitlarini tekshirish va shikoyatlarni qabul qilish/ko'rib chiqish tizimlari mavjud (masalan, kasaba uyushmalarini jalb qilganligi).</p>	<p>8 DECENT WORK AND ECONOMIC GROWTH</p>  <p>4 QUALITY EDUCATION</p>  <p>5 GENDER EQUALITY</p>  <p>10 REDUCED INEQUALITIES</p> 
<p><b>B3 Mahalliy tadbirkorlarni va adolatli savdoni qo'llab-quvvatlash</b></p> <p>Destinasiya mahalliy korxonalarini, ta'minot zanjirlarini va barqaror investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy iqtisodiyotda turizm xarajatlarini ushlab turishni rag'batlantiradi. U adolatli savdo tamoyillariga asoslangan va hudud tabiati va madaniyatini aks ettiruvchi mahalliy barqaror mahsulotlarni ishlab chiqish va sotib olishga yordam beradi. Bu oziq-ovqat va ichimliklar, hunarmandchilik, ijrochilik san'ati asarlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.</p>	<p>a. Maslahat, moliyaviy yoki boshqa yordam - turizm bilan bog'liq kichik va o'rta korxonalar uchun mo'ljallangan joyda mavjud.</p> <p>b. Mahalliy turizm bilan bog'liq kichik va o'rta korxonalar uchun bozorga kirishda yordam berish.</p> <p>c. Mahalliy turistik korxonalarini mahalliy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga rag'batlantirish va yordam berish bo'yicha harakatlar.</p> <p>d. Mahalliy fermerlar, hunarmandlar va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga turistik qiymat zanjirida ishtirok etishga yordam berish tashabbuslari.</p> <p>e. Mahalliy mahsulotlar va qo'l san'atlari asarlari aniqlangan, targ'ib qilingan va tashrif buyuruvchilarga sotilishi mumkin.</p>	<p>8 DECENT WORK AND ECONOMIC GROWTH</p>  <p>12 RESPONSIBLE CONSUMPTION AND PRODUCTION</p>  <p>2 ZERO HUNGER</p> 
<p><b>B(b) Ijtimoiy farovonlik va ta'sirlar</b></p>		
<p><b>B4 Jamiyatni qo'llab-quvvatlash</b></p> <p>Destinasiyada korxonalar, tashrif buyuruvchilar va jamoatchilikni jamiyat va barqarorlik tashabbuslariga mas'uliyat bilan hissa qo'shishga imkon beradigan, rag'batlantiradigan tizim mavjud.</p>	<p>a. Mahalliy turistik korxonalar tomonidan mahalliy hamjamiyat va barqarorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash rag'batlantiriladi va osonlashtiriladi.</p> <p>b. Mahalliy hamjamiyat va barqarorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun tashrif buyuruvchilar uchun maxsus sxemalar mavjud va targ'ibot ishlari olib boriladi.</p> <p>c. Ko'ngillilik va jamiyat bilan hamkorlik</p>	<p>3 GOOD HEALTH AND WELL-BEING</p>  <p>4 QUALITY EDUCATION</p> 

	qilish majburiy emas va aralashuvni o'z ichiga olmaydi.	
